

**RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH DAVRIDA BYUJDETD  
NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH***Isaev Otamurod Raxmonovich**Bank-Moliya akademiyasi magistranti*

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, uning raqobatbardoshligini ta‘minlash, faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlarga «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida ilg‘or g‘oyalar, "smart" texnologiyalar va nou-xaularga asoslangan innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga bosqichma-bosqich o‘tish, iqtisodiyotga innovatsiyalar va yangi texnologiyalar joriy etishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlar ishlab chiqish, 2023 yilning 1 yanvariga qadar venchur fondlar, yuqori texnologik startap-loyihalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, innovatsiya markazlari va loyiha-konstruktorlik byurolariga o‘zlarining yangi texnologiyalarini tadbirkorlarga sotish (foydalanish uchun taqdim etish)dan tushgan daromadlari bo‘yicha soliq imtiyozlari taqdim etish» kiradi. Bu o‘z navbatida xo‘jalik sub‘ektlari tomonidan ishlab chiqarish va boshqaruvga innovatsiyalarni, inson aqliy mexnati mahsuli bo‘lgan intellektual mulk ob‘ektlarini umuman olganda nomoddiy aktivlarni keng jalb etish hamda joriy qilinishini rag‘batlantirayotganligi mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy yo‘nalishlari mazmun maqsadida o‘z aksini topmoqda.

Nomoddiy aktivlar hisobi hamda auditiga oid muammolar xorijiy olimlardan E.Bruking, Tomas A Styuart, D.Andrissen, R.Tissen, E.Arene, F.Kotler, M.Bernard, Sh.Bred, R.Kaplan, D.Levin, D.Norton, M.Polani, A.Poltarak, P.Lerner, K.Peter, F.Rikkeri, T.Richard, K.Sveybi<sup>3</sup> va boshqalar o‘zlarini ilmiy asarlarida intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni intellektual kapitalni tarkibiy qismi sifatida ularni hisobga olish va tahlilini amalga oshirish tamoyillarini hamda baholash metodologiyasi jihatlarini nazariy asoslarini tadqiq etganlar. R.P.Buliga, A.D. Sheremet, M.I.Bakanov, V.S.Rjanitsina, S.B.Marmish, Yu.A.Kletkina, E.S.Seliverstova, N.A.Trofimova, L.V.Babicheva, T.O.Grafova, Yu.O.Bistrova, E.A.Sinitsina<sup>4</sup> kabi olimlar asarlarida nomoddiy aktivlarni kelib chiqish tarixi, iqtisodiy mohiyati, ularning turlari va shakllari, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni, brend tovar belgilari yuzasidan franchayz shartnomalarini marketingda tutgan o‘rni, franchayzing ob‘ektlarini baholash metodlarini ishlab chiqish, va takomillashtirish bo‘yicha, intellektual mulkni nomoddiy aktivlar ob‘ekti ekanligi, ular bo‘yicha sodir bo‘ladigan jarayonlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.Q.Qudbiev, M.K.Pardaev, I.N.Ismanov, R.Do‘smurodov,

A.K.Ibragimov, N.Yu.Jo'raev, A.A.Karimov, Z.T.Mamatov, K.B.O'razov, Z.N.Qurbanov, B.A.Xasanov, Sh.I.Ilxamov, N.F.Karimov, S.U.Mexmonov, I.N.Qo'ziev, M.E.Po'latov, K.R.Xotamov, N.K.Rizaev, I.R.Davletov va boshqalar5 ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Bugun taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, nafaqat iqtisodiyot, balki boshqa sohalaridagi taraqqiyot ham ko'p jihatdan mavjud nomoddiy aktivlar hisoblanmish inson aqlu-zakovatining mahsuli bo'lmish intellektual mulk bilan bevosita bog'liq. Rivojlangan davlatlar tabiiy resurslari tufayli emas, birinchi navbatda, intellektual boylikka tayangan holda, ya'ni, innovatsion g'oyalar, ixtirolar, ilmiy va dasturiy ishlanmalarni amaliyotga izchil tatbiq etish orqali yuksak natijalarga erishgani ortiqcha izoh talab etmaydi.

7-sonli BHMSning 10-bandida nomoddiy aktivlarga quyidagi ob'ektlar kiritilishi ko'zda tutilgan:

a) patent egasining ixtiro, sanoat namunalari va foydali modellarga bo'lgan mutlaq huquqi;

b) muallif yoki boshqa huquq egasining EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga bo'lgan mutlaq huquqi;

v) muallif yoki boshqa huquq egasining integral mikrosxemalarning topologiyalariga bo'lgan mutlaq huquqi;

g) huquq egasining tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga bo'lgan mutlaq huquqi, shuningdek tovar ishlab chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi;

d) huquq egasining seleksiya yutuqlariga bo'lgan mutlaq huquqi;


e) gudvill;

j) tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, ya'ni er osti boyliklari, atrof-muhitdagi boshqa resurslar, atrof-muhit to'g'risidagi geologik va boshqa ma'lumotlar va shu kabilardan foydalanish huquqi;

z) yer uchastkasidan foydalanish huquqi;

i) boshqa nomoddiy aktivlar (mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiy va boshqa imtiyozlardan foydalanish huquqi va shu kabilarda)»

Iqtisodchi olimlar fikri va me'yoriy hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, nomoddiy aktivlarning asosiy qismini intellektual mulk ob'ektlari tashkil qilmoqda. Shunga asosan bizning fikrimizcha, nomoddiy aktivlarni shartli ravishda to'rtta guruhga bo'lish maqsadga muvofiq. Bular: intellektual mulk, franchayzlar, gudvill va boshqa nomoddiy aktivlar.



1-rasm.Nomoddiy aktivlarning guruhlanishi

Ayrim hollarda franchayzlarni intellektual mulklar guruhiga kiritishadi. Lekin, odatda franchayzlarni o‘zi ichiga bir qancha intellektual mulk ob‘ektlari bo‘lgan nomoddiy aktivlarni qamrab olishi mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida nomoddiy aktivlar tarkibida turadigan franchayzlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda etarli darajada ma‘lumot berilmaganligiga guvoh bo‘ldik. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasida ham franchayz haqida umuman ma‘lumot berilmagan. Shuni inobatga olgan xolda franchayz atamasini quyidagi takomillashgan ta‘rifini ishlab chiqdik:

**“Franchayz - intellektual mulk ob‘ektlari bo‘lgan tovar markasi, nou-xau, savdo belgisi, retsept va shunga o‘xshash nomoddiy aktivlarni ma‘lum bir davrga (kamida bir yil) royalti (foyda yoki aylanmadan ajratma) to‘lash sharti bilan oldindan ma‘lum bir haq to‘lash (paushal to‘lov) evaziga sotib olingan nomoddiy aktivdir”.**

Ba‘zi manbalarda nomoddiy aktivlarni quyidagi belgilarga asosan guruhlashtirilgan:

1. Identifikatsiyalanishiga ko‘ra: identifikatsiyalanuvchi va identifikatsiyalanmaydigan;
2. Olinishi usuliga ko‘ra: sotib olingan va korxonada yaratilgan;
3. Kutish davriga ko‘ra: qonun bilan chegaralangan va chegaralanmaga;

#### 4. Korxonadan ajralishiga ko'ra.

Ma'lumki, ilm-fan taraqqiyoti, texnika-texnologiyani rivojlanib borishi, ishlab chiqarishni, umuman olganda ijtimoiy-iqtisodiy hayotni modernizatsiyalashib borishi hamda har bir mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohot va jarayonlar ta'sirida jamiyatda iqtisodiy o'sish va yangilanishlar yuz beradi. Bularning natijasida nomoddiy aktivlarning, ayniqsa intellektual mulkning yangi ko'rinishlari (turlari) paydo bo'ladi. Bu esa buxgalteriya hisobining yangi ob'ektlarini paydo bo'lishligidan dalolatdir.

Intellektual mulk inson tafakkuri va yangi bilimlar natijasi hisoblanadi. Shuning uchun bu atama ilmiy, adabiy va san'at asarlarini, EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazasi, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, selektsiya yutuqlari, oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan sirsinoatni ham anglatadi.

Har bir mamlakat taraqqiyotida intellektual salohiyat alohida o'rin tutgani bois intellektual mulkni muhofaza qilish va uni rivojlantirish muhim ahamiyatga molik masalalardan biri sanaladi. Bugun dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, nafaqat iqtisodiyot, balki boshqa sohalardagi taraqqiyot ham ko'p jihatdan intellektual mulk bilan bevosita bog'liq. Rivojlangan davlatlar tabiiy resurslari tufayli emas, birinchi navbatda, intellektual boylikka tayangan holda, ya'ni, innovatsion g'oyalar, ixtirolar, ilmiy va dasturiy ishlanmalarni amaliyotga izchil tatbiq etish orqali yuksak natijalarga erishgani ortiqcha izoh talab etmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning asosini intellektual faoliyat natijasida yaratilayotgan intellektual mulk ob'ektlari tashkil qilar ekan, intellektual mulkning iqtisodiy mohiyatini, buxgalteriya hisobining alohida ob'ekti sifatida ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakat iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni investitsion jozibadorligini oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini xolisona baholash, ularga xorijiy sarmoyalar jalb etish shart-sharoitlarini mustahkamlashda mustaqil nazorat turi bo'lgan auditga ehtiyoj yanada ortib boradi.

Innovatsiyalarni joriy etilishi yuqori texnologiyalarni barpo etilishi esa nomoddiy aktivlarni vujudga kelishiga sababchi bo'lmoqda. Endilikda nomoddiy aktivlarsiz korxonalar mahsulot ishlab chiqara olmasligi, xizmatlar ko'rsata olmasligini taqozo etib boradi. Korxonalarining uzoq muddatli aktivlari tarkibida korxonalariga daromad keltirishga sababchi bo'ladigan buxgalteriya hisobining ob'ektlari bo'lgan nomoddiy aktivlar ulushi ortib boradi. Bu o'z navbatida nomoddiy aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar auditining alohida yo'nalish sifatida ajratilishini zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bu yo'nalish majburiy audit o'tkazishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Nomoddiy aktivlar ob'ektlari bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari auditining maqsadi-tekshirilayotgan korxonada moliyaviy hisobotlarida uzoq muddatli aktivlar tarkibida tan olinib, baholanib, identifikatsiya qilinib aks ettirilgan nomoddiy aktivlarga bo'lgan mulkiy huquqni haqiqiyliigi hamda nomoddiy aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida yuritilishi tartibini mavjud normativ hujjatlarga mosligi to'g'risida fikr bildirishdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish jarayonlarida innovatsiyalarni keng joriy etish, ya'ni inson aqliy mehnati natijasi bo'lgan intellektual mulk ob'ektlarini nomoddiy aktiv sifatida tan olinishi, kapitallashtirilishi uzoq muddatli aktivlari qiymatini ortishiga, o'z navbatida yangi hisob ob'ektlarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bozor munosabatlari va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi talablaridan kelib chiqqan xolda korxonada nomoddiy aktivlarining guruhlashtirilishi ularning hisobini tashkil etish ob'ektivligini ta'minlaydi. Xususan, franchayzlar buxgalteriya hisobini, ularning amortizatsiyalash usullarini to'g'ri tashkil etilishi mahsulot tannarxini to'g'ri shakllanishida muhim rol o'ynab, korxonada foydasini oshishiga va o'z navbatida yangidan yaratilgan qiymatni ob'ektivligini ta'minlab, qo'shilgan qiymat, foyda solig'i bo'yicha soliq tushumlarini ortishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy etilishi natijasida korxonalarining uzoq muddatli aktivlari tarkibida nomoddiy aktivlarni xajmi ortib, tarkibi kengayib boradi. Nomoddiy aktivlar va ular tarkibini o'rganish natijasida nomoddiy aktivlarni xususiyatlarini hisobga olgan holda to'rt guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir degan xulosaga keldik. Ular intellektual mulk ob'ektlari, franchayzlar, gudvill va boshqa nomoddiy aktivlar.

Nomoddiy aktivlar auditini AXSlari asosida o'tkazishda qo'llaniladigan auditning umumiy rejasi va dasturining takomillashgan namunaviy shakli ishlab chiqildi. Auditning umumiy rejasi va dasturining mavjud namunaviy shaklining qo'shimcha «Talab qilinadigan auditorlik muolajalari» nomli ustunni qo'shilishi audit o'tkazilayotgan korxonada bo'yicha tuzilayotgan auditning umumiy rejasidagi audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari va dasturdagi rejalashtirilayotgan ish turlari yuzasidan bajariladigan auditorlik muolajalari hamda ular yuzasidan xato kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini aks ettiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI**

1.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2007 yil 25 dekabr. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 y., 2-son, 47-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)



2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” 2016 yil 13 aprel.(yangi tahrir, O‘zR 404-son qonuni)
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» 2000 yil 26 may. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, № 5–6, 149-modda; 2003 yil, № 1, 8-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 4, 154-modda, 2006 yil, № 10, 536-modda; 2007 yil, № 9, 416-modda; 2009 yil, № 9, 330-modda)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916 sonli «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. Oliy Majlis Axborotnomasi, 7-son 387-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 maydagi PQ-1536 sonli «O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 20 oktyabrdagi PQ-2637-sonli «O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682 sonli «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyixalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ-3946-sonli «O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.
10. Gorbunov A.A, Mamontov K.V. Marketingovaya kontseptsiya prodvijeniya franshiz brendovix tovarov. 2016.–SPb.: Asterion, –164 s.
11. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istikbollari. Monografiya.-Toshkent. Toshkent moliya instituti. 2004.
12. Nurmatov O.T. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarida nomodiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish masalalari. //Monografiya. Farg‘ona, “Farg‘ona” nashriyoti, 2017. ISBN 978-9943-4916-8-7. 159 bet.
13. Okyulov O. Innovatsiya rivojlanishini ta‘minlashda intellektual mulk hukuki institutlari ta‘siri samaradorligini oshirish masalalari.-Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2016. - 300 b.
14. Rizaev N.K. “Intellektual mulk ob‘ektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi”, monografiya / T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. 19-bet; 232 bet.
15. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobini kontseptual masalalari. Monografiya.-T.: Fan. 2005. 236 b.
16. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola / O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent Davlat